

KOXLEAR IMPLANTATSIYA VA BOLALARDA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA KORREKSION-PEDAGOGIK ISH

Salimova Hilola Rustamovna

Tashkent Kimyo xalqaro universiteti 2-kurs magistr salimova070586@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada koxlear implantatsiya qilingan bolalarning eshituv-nutqiy rehabilitatsiyasida samarali korreksion-pedagogik ishning asosiy yo'llari tahlil qilinadi. Koxlear implantlar bolalarning nutqni egallash, atrof-muhit bilan muloqot qilish va ijtimoiy moslashuvini tezlashtirishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada ota-onalar va mutaxassislarning rehabilitatsiya jarayonidagi roli, nutqni rivojlantirish tamoyillari, shuningdek, zamonaviy pedagogik va terapevtik usullar (sensor integratsiya, AFK o'yinlari, neyrogimnastika, logoritmika, logopedik massaj va DEANS terapiya) bilan ishlash yo'llari bayon etilgan. Ishda har bir bolaning individual xususiyatlariga moslashtirilgan yondashuvning ahamiyati va ota-onalarning faol ishtirokini ta'minlash zarurati alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: koxlear implant, nutqni rivojlantirish, eshituv-nutqiy rehabilitatsiya, surdopedagogika, logopedik ish, ota-ona ishtiroki, individual yondashuv

Abstract: This article analyzes the main methods of effective correctional and pedagogical work in the auditory and speech rehabilitation of children with cochlear implants. Cochlear implants are considered as an important tool in accelerating children's acquisition of speech, communication with the environment and social adaptation. The article describes the role of parents and specialists in the rehabilitation process, the principles of speech development, as well as ways of working with modern pedagogical and therapeutic methods (sensory integration, AFC games, neurogymnastics, logorhythmic, speech therapy massage and DEANS therapy). The work emphasizes the importance of an approach tailored to the individual characteristics of each child and the need to ensure the active participation of parents.

Keywords: cochlear implant, speech development, auditory and speech rehabilitation, surdopedagogy, speech therapy, parental participation, individual approach

Аннотация: В данной статье анализируются основные методы эффективной коррекционно-педагогической работы в области слухо-речевой реабилитации детей с кохлеарными имплантами. Кохлеарные импланты рассматриваются как важный инструмент ускорения усвоения речи детьми, их коммуникации с окружающей средой и социальной адаптации. В статье описывается роль родителей и специалистов в процессе реабилитации, принципы развития речи, а также способы работы с современными педагогическими и терапевтическими методами (сенсорная интеграция, игры AFC, нейрогимнастика, логоритмия, логотерапевтический массаж и DEANS-терапия).



В работе подчеркивается важность подхода, адаптированного к индивидуальным особенностям каждого ребенка, и необходимость обеспечения активного участия родителей.

Ключевые слова: *кохлеарный имплант, развитие речи, слухо-речевая реабилитация, сурдопедагогика, логотерапия, участие родителей, индивидуальный подход*

Koxlear implantantning zamonaviy modellari bolalarga nutqni yaxshi eshitish va nutqning rivojlanish davrida eshitishni yo'qotgan bolalarning to'la ijtimoiy reabilitatsiyalanishini ta'minlaydi. Koxlear implantatsiyadan so'ng bolalar me'yordagi tovushlarni eshitishlari, tovushli muhitda oriyentatsiya qilishlari mumkin: Faqatgina ularga doimiy ravishda davomli eshitish-nutqiy reabilitatsiya olib borilishi zarur.

Koxlear implantli bolalarni eshituv – nutqiy faoliyatga tayyorlashda ularning aqliy rivojlanganligi muhim sanaladi. Chunki har qanday harakat oldin taxmin qilinadi, fikrlash orqali uning rejasi tuziladi va natija - maqsadga erishiladi. Demak, koxlear implantli bolalarni nutqiy faoliyatga tayyorlash ularni intellektual rivojlantirish vazifasi bilan hamohangdir.

Bola nutqni egallash orqali predmetlar, belgilar, harakat va munosabat kabi tushunchalarni ham o'zlashtiradi. Bunda faqatgina bilimga ega bo'lib qolmay, balki fikrlashga o'rganadi, chunki o'ylash bu - ichida yoki ovozini chiqarib gapirish, gapirish bu - o'ylash demakdir.

Koxlear implantli bola nutqni egallaganidan so'ng atrofidagi olam bilan munosabatga kirishadi va uning dunyoqarashi kengayadi. U endilikda faqatgina predmet bilan emas, balki umuman ko'rmagan yoki hozirgi vaqtda shaxsiy tajribasida mavjud bo'lmagan predmet bilan (ertaklarga sayohat qiladi, hikoyalardagi insonlar qanday yashaganliklarini tinglaydi va mulohaza yuritadi) munosabatga kirishadi.

Koxlear implantli bola nutqdan o'z fikri, his – tuyg'ularini ifodalash, ya'ni atrofidagi insonlarga ta'sir qilish uchun foydalanadi. Bunda nutqning ifodaviyligi, emotsional va bog'langan bo'lishi muhimdir.

L.S.Vigotskiy me'yorda rivojlanayotgan bolalar shaxsiyatining shakllanishi haqida so'zlaganda, bolaning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi ijtimoiy madaniyatning rivojlanish darajasiga mos keladi deb hisoblaydi. Bola hayoti davomida ijtimoiy tajribani, umuminsoniy va milliy ahloq-odob normalarini egallab boradi, ta'lim oladi va asta-sekin har tomonlama aqliy va jismoniy jihatdan yetilib boradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan nogiron bolalarda bu jarayon qiyinchilik bilan kechadi, ular kattalarning yordamiga ko'proq bog'liq bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi ham maxsus yordamsiz sodir bo'lmaydi.



Afsuski, hayotda eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar ko'p uchraydi. Eshitishiga nuqsoni bo'lgan bolaning tug'ilishi, har qanday nogiron bolaning tug'ilishi kabi, oila uchun katta fojia. Ota-ona bolasining eshitmayotganini payqaganda dastlab sarosimaga tushadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola rehabilitatsiya jarayoniga qancha erta jalb qilinsa, uning ijtimoiy moslashuvi shuncha tez kechadi. I.V.Koroleva ushbu kategoriyaga mansub bolalarning ota-onalariga o'z vaqtida psixologik yordam berish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Agar ota-onalarga psixologik to'siqlarni yengib o'tishga amaliy yordam berilsa, agar ular farzandlariga tibbiy yordam bilan bir qatorda korreksion-rivojlantiruvchi yordam kerakligini o'z vaqtida anglab yetishsa, bu bolaning nutqni tushunish, nutq orqali muloqotga kirishish ko'nikmalari erta shakllanadi.

Bu o'rinda kar bolalarda koxlear implantatsiya operatsiyasining o'tkazilishi o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi va bu muammolarni hal qilishda avvalam bor ota-onalarning zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi.

Koxlear implantatsiya muammolari bilan chuqur shug'ullanib kelayotgan olima I.V.Korolevaning ta'kidlashicha, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi uning oilasi bilan birgalikda uzviy ravishda olib borilishi lozim. Buning uchun ota-onalar avvalam bor koxlear implantatsiyali bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning tuzilishi, maqsadi, vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ishlar koxlear implantatsiya bilan bog'liq operatsiya o'tkazilishidan oldin boshlanishi kurak. Bunda ota-onalar va yaqin qarindoshlarga avvalam bor implantatsiya bu jarrohlik aralashuvi ekanligini tushuntirish, implantatsiyaning funksiyasi haqida, koxlear implantatsiya moslamasi hamda uni ishlash prinsipi haqida to'liq ma'lumot berish kerak. Bundan tashqari, koxlear implantatsiyadan so'ng nutq eshituv rehabilitatsiyasining shart-sharoitlarini muhokama etish muhim.

● Bola surdopedagog, logoped zarur bo'lsa psixolog bilan doimiy ravishda shug'ullanish imkoniyatiga egami?

● Bolaga qanday nutqiy muhit sharoitini tashkil etgan ma'qul? (logopedik yoki ommaviy bog'chaga borishi).

● Ota-ona o'z bolasining nutqi va eshitishini rivojlantirish ustida doimiy ravishda ish olib bora oladimi?

● Bu borada bilim va tajribaga egami hamda maxsus yordam berishga qodirmi?

● Ota-onalarga bola bilan uyda shug'ullanishga yordam beruvchi qanday adabiyotlar tavsiya etish mumkin?

Koxlear implantatsiya protsessori yoqilganidan so'ng hamda keyingi rehabilitatsiya davri vaqtida bolaning xulqida o'zgarishlar kuzatilishiga ota-ona va yaqinlarini tayyorlash lozim. Boshida bola tovushlarga e'tibor bermasligi, o'jar bo'lib qolishi, tez toliqib qolishi



mumkinligi haqida ota-onalarni oqoxlantirish kerak. Ba'zi hollarda bolaning ota-onasiga - metodik maslahatlar berish bilan bir qatorda konkret misollar ham keltirish katta samra berishi mumkin. Masalan, I.V.Koroleva bu borada koxlear implantanli farzandi bo'lgan va boshlang'ich bosqichdan o'tgan boshqa bir ota-onaning o'z farzandi bilan muloqotini video tasmlarda ko'rsatish va tahlil qilish katta yordam berishini aytib o'tgan. Shuningdek, I.V.Koroleva korreksion-reabilitasion ishda ota-onalarning bolada nutqiy idrokni rivojlantirish hamda talaffuzga o'rgatishning maxsus usul va vositalarini egallashlariga katta e'tibor qaratadi.

Ota-onalar bolaning eshituv qoldig'ini rivojlantirish, nutqning talaffuz tomonini shakllantirish bo'yicha ishlarni yaxshi olib bora olishlari kerak. Ota-onalarga ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam berishda shifokor, logoped, surdopedagog, psixologlar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- ota-onalarga eshitish nuqsonini davolashga qaratilgan vositalar haqida, yo'qotilgan eshituvni eshitish apparati yoki koxlear implantatsiya yordamida kompensatsiyalashning zamonaviy imkoniyatlari haqida maksimal ma'lumotlar berish;

- bolani atrofidagi odamlarni tushunish va eshitish imkoniyatini chegaralanganligini inobatga olgan xolda ota-onani u bilan muloqot qilishga o'rgatish;

- ota-onalarni bola bilan mustaqil va tizimli ravishda shug'ullanishga o'rgatish;

- erta eshituv protezlarining muhimligini aniqlashtirish, koxlear implantatsiya yoki ijtimoiy adaptatsiyani kuchaytirish va ish qobiliyatlarini nazorat etishga o'rgatish;

- ota-onalarga bola bilan olib boriladigan surdopedagogning mashg'ulotlari va o'zlarining mashg'ulotlari, koxlear implantatsiyadan foydalanish natijalari darrov ko'rinmasligi, ularning sabrli bo'lishlari lozimligini tushuntirish kerak;

- ota-onalarga shunday muammosi bo'lgan, bolasi bilan faol shug'ullangan, maslahatlari bilan qo'llab quvvatlay oladigan boshqa ota-onalar bilan muloqot qilish imkonini yaratish, buning uchun bunday farzandi bor ota-onalar markazini tashkil qilish lozim;

- ota-onalarni o'z bolasini qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish, uning har bitta, xatto eng kichik yutug'idan ham xursand bo'lishga da'vat etish kerak.

I.V.Koroleva qo'llanmalarida koxlear implantatsiyali bolalarning nutqi va eshitishini uy sharoitida rivojlantirish bo'yicha batafsil tavsiyalar berilgan.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishda ko'rgazmalilikka rioya qilish juda muhim, zero yuz marta eshitgandan, bar marta ko'rgan yaxshiroq. Bunday hollarda ular surdopedagog, logoped, psixologga shaxsan murojat eta oladilar, u esa bola bilan o'tiladigan mashqlarni tushuntiradi, kerak bo'lsa ko'rsatib beradi.

Ota-onalar bilan ishlashning turlicha shakllaridan: maslahat-konsultatsiyalar (pedagoglarning guruh va yakka tartibdagi maslahatlari), anonim muloqot, ma'rifiy



(trening, ma'ruza, davra suhbatlari, mavzuga oid muhokamalar) va amaliy tadbirlardan (ochiq mashg'ulotlar, bayram tadbirlari, bolalar bilan hamkorlikdagi faoliyat) foydalangan holda ish olib boriladi. Ularda asosiy e'tibor uy sharoitida bolalar bilan olib borilishi lozim bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ish tizimining yoritib berilishiga qaratiladi.

Ota-onalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtirokiga ham alohida ahamiyat berilib, ularning uy sharoitida farzandlarining nutqini rivojlantirishni nazarda tutuvchi tavsiyalar tayyorlandi.

Koxlear implantantli bolalarning nutqiy rivojlanish bosqichi eng sodda og'zaki nutq asosida amalga oshirildi:

a) so'zlovchilar o'rtasida taqsimlangan savol-javob orqali;

b) vaziyatning mavjudligi;

v) me'yorida eshituvchi shaxslar nutqining ohangdorligini ta'minlovchi ovoz toni va imo-ishoralar orqali;

g) bayon etishni yengillashtiruvchi – to'liqsiz gap shaklining mavjudligi.

Sanab o'tilgan sharoitlarning mavjudligi KI bola nutqining takomillashishiga imkon yaratdi. KI bolaning bunday sharoitda ishtirok etishi, bir tomondan, ehtiyojlarini qondirishi uchun imkon bersa, ikkinchi tomondan, keyinchalik yuzaga keluvchi nisbatan kuchliroq talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan nutqning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Koxlear implantatsiya operatsiyasi qancha erta amalga oshirilsa, bolaning nutqiy va ijtimoiy moslashuvi shuncha tezroq kechadi. Koxlear implantatsiya yordamida bola xatto past tovushlarni ham eshitadi, biroq unda nutqni egallash qobiliyatining yo'qligi kuzatiladi. Shuning uchun paydo bo'lgan eshituvni rivojlantirish hamda atrofdagi odamlar nutqini tushunishga qaratilgan nutq eshituv ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishi juda muhimdir. Ota-onalar bolaning eshituv qoldig'ini rivojlantirish, nutqning talaffuz tomonini shakllantirish bo'yicha ishlarni yaxshi olib bora olishlari kerak. Ota-onalarga ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam berishda shifokor, logoped, surdopedagog, psixologlar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- ota-onalarga eshitish nuqsonini davolashga qaratilgan vositalar haqida, yo'qotilgan eshituvni eshitish apparati yoki koxlear implantatsiya yordamida kompensatsiyalashning zamonaviy imkoniyatlari haqida maksimal ma'lumotlar berish;

- bolani atrofidagi odamlarni tushunish va eshitish imkoniyatini chegaralanganligini inobatga olgan xolda ota-onani u bilan muloqot qilishga o'rgatish;

- ota-onalarni bola bilan mustaqil va tizimli ravishda shug'ullanishga o'rgatish;

- erta eshituv protezlarining muhimligini aniqlashtirish, koxlear implantatsiya yoki ijtimoiy adaptatsiyani kuchaytirish va ish qobiliyatlarini nazorat etishga o'rgatish;



- ota-onalarga bola bilan olib boriladigan surdopedagogning mashg'ulotlari va o'zlarining mashg'ulotlari, koxlear implantatsiyadan foydalanish natijalari darrov ko'rinmasligi, ularning sabrli bo'lishlari lozimligini tushuntirish kerak;

- ota-onalarga shunday muammosi bo'lgan, bolasi bilan faol shug'ullangan, maslahatlari bilan qo'llab quvvatlay oladigan boshqa ota-onalar bilan muloqot qilish imkonini yaratish, buning uchun bunday farzandi bor ota-onalar markazini tashkil qilish lozim;

- ota-onalarni o'z bolasini qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish, uning har bitta, xatto eng kichik yutug'idan ham xursand bo'lishga da'vat etish kerak.

Koxlear implantli bolalar uzoq muddatli maxsus ko'makka muhtoj bo'ladilar. Bunda koxlear implantatsiya bo'yicha tadbirlar dasturini amalga oshirishga qaratilgan kompleks diagnostika va korreksiya modelini ishlab chiqish alohida dolzarb muammoga aylanganligini aytib o'tish joiz.

Kompleks rehabilitatsiya sifatida Sensor integratsiya, AFK o'yinlari, Neyrogimnastika, logoritmika, karaoke, logopedik massaj, DEANS terapiya, kinezioteypnlarni qo'llash hozirgi bosqichda maxsus ta'lim tizimidagi yetakchi yo'nalishlardan biri bo'lgan zamonaviy ta'lim va tarbiyaning integratsiyalashgan konsepsiyasiga asoslanadi. U fanlararo xarakterga ega bo'lib, hozirgi kundagi tibbiyot, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlarning, shuningdek, jamiyatning huquqiy ko'magiga asoslanuvchi har tomonlama barqaror integratsion yondashuvni talab etadi. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, operatsiyadan keyingi dastlabki ikki yil koxlear implantli bolalar rivojlanishi uchun o'ta muhim davr hisoblanadi.

Koxlear implantantli bolalar nutqini shakllantirish bo'yicha korreksion pedagogik ish jarayonida nutqni keng qamrovli rivojlantirish bo'yicha olib boriluvchi ishlarda tamoyillarga rioya qilinish lozim.

Har bir bolaning nutqini rivojlantirishda, nutqiy rivojlanishning dastlabki darajasini hisobga olgan holda, tabaqalangan ravishda va individual yondashish tamoyili. Har bir bola rivojlanishiga mos ravishdagi ishning tashkiliy shakllaridan foydalanish tamoyili. Til o'rgatishda tilni muloqot (kommunikatsiya) quroli sifatida shakllantirish tamoyili. Kommunikativ tizimni amalga oshirishda asosiy: genetik, faoliyat hamda struktur-semantik tamoyillarga tayanish.

Nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishning mavzuiy tamoyili. Nutqni yaxlit jarayon sifatida shakllantirishda nutqiy faoliyatning turli ko'rinishlari (atrofni eshitish-ko'rish va eshitish, so'zlash, o'qish, yozish vositasida idrok etish) ni o'zlashtirishni ko'zda tutish.

So'zlashuv nutqini rivojlantirishning amaliy faoliyat bilan bog'liqligi tamoyili. So'zlashuv muloqotiga ehtiyojni yuzaga keltirish tamoyili.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Королева И.В. Кохлеарная имплантация у детей с нарушением слуха: руководство для родителей и специалистов. – Москва: Просвещение, 2018. – 256 с.
2. Виготский Л.С. Психология развития ребенка. – Москва: Педагогика, 2001. – 320 с.
3. Salimova H.R. Korreksion-pedagogik yondashuvlar va nutqni rivojlantirish metodikasi koхlear implantatsiyali bolalarda // Tashkent Kimyo Xalqaro Universiteti ilmiy jurnal. – 2025. – №2. – B. 45–53.
4. Koroleva I.V. Reabilitatsiya eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda. – Sankt-Peterburg: Akademiya, 2016. – 192 s.
5. Михайлова Л.Н. Сурдопедагогика: методика обучения глухих детей. – Москва: Наука, 2014. – 304 с.
6. Петров А.А. Логопедическая работа с детьми после кохлеарной имплантации // Вестник коррекционной педагогики. – 2019. – №3. – С. 22–31.
7. Ибраева Г.Х. Комплексная реабилитация детей с нарушением слуха: современные подходы. – Ташкент: Шарқ, 2020. – 208 с.

